

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

BARQAROR BIRLIKLARDA VAQT LINGVOMADANIY KODINING IFODALANISHI

Zohida Muqimova Rasulovna

*O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti ilmiy xodimi,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

zohidamuqimova69@gmail.com

Annotatsiya: Odamning olamni bilishda, uni mantiqiy idrok etishda madaniy kodning muhim o‘rni bor. Vaqt lingvomadaniy kodi turining mohiyati shundan iboratki, unda boshqa tushunchalar vositasida vaqt tushunchasi haqida ma’lumot beriladi. Vaqt lingvomadaniy kodi barqaror birliklarda qanday tayanch vazifa bajarsa uni ifodalab keladi. Mazkur maqolada o‘zbek tili barqaror birliklarida tayanch qism bo‘lgan vaqt lingvomadaniy kodlar xususiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: lisoniy birlik, lingvomadaniy kod, vaqt lingvomadaniy kodi, barqaror birlik, zoomorf kod, somatik kod.

Abstract: The cultural code plays an important role in a person's knowledge of the world and its logical perception. The essence of the type of linguistic-cultural code of time is that it provides information about the concept of time through other concepts. The language-cultural code of time expresses what basic function it performs in stable units. This article describes the characteristics of linguistic and cultural codes, which are the main part of the stable units of the Uzbek language.

Key words: linguistic unit, linguistic code, time-linguistic code, stable unit, zoomorphic code, somatic code.

Аннотация: Культурный код играет важную роль в познании человеком мира и его логическом восприятии. Сущность типа лингвокультурного кода времени состоит в том, что он дает информацию о понятии времени через другие понятия. Языко-культурный код времени выражает в устойчивых единицах, какую основную функцию он выполняет. В данной статье описываются характеристики лингвокультурных кодов, которые являются основной частью устойчивых единиц узбекского языка.

Ключевые слова: языковая единица, языковой код, временно-лингвистический код, устойчивая единица, зооморфный код, соматический код.

Lingvomadaniyatshunoslikda madaniy kodlar tushunchasi bilan aloqador bo‘lgan lingvomadaniy kodlar tushunchasi mavjud. Lingvomadaniy kodlar madaniy kodlarning bir turi bo‘lib, uning verballashgan ko‘rinishidir. Lingvomadaniy kodlar o‘zbek lingvomadaniyatshunosligida nisbatan kam o‘rganilgan mavzulardan biri hisoblanadi. Turg‘un birliklarning shakllanishida, ayniqsa, paremiologik birliklarda lingvomadaniy kodlar asosiy o‘rin tutadi. Masalan, somatik lingvomadaniy kodlar (*bosh, ko‘z, qo‘l, burun, oyoq, jigar, o‘pka, panja*) va zoomorf lingvomadaniy kodlar (*it, mushuk, qo‘y, xo‘roz*) ko‘plab frazeologizmlarning shakllanishida asosiy komponent bo‘lgan.

U yoki bu millat egasi o‘zini qurshab olgan olamga qiziqqa boradi, kerakli ma’lumotlarni o‘zlashtiradi. Natijada yig‘ilgan ma’lumotlar uning tilida voqelanib, u faqat ungagina tegishli va ungagina tushunarli bo‘ladi. Odamning olamni bilishda,

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

uni mantiqiy idrok etishda esa madaniy kodning muhim o‘rni bor. Muayyan muhitda tug‘ilib o‘sgan odamda ma’lum bir tushunchaning madaniy o‘ziga xos mazmunini o‘z ichiga oluvchi manzara paydo bo‘ladi. Turli madaniyat vakillarining bir xil tushunchani anglatuvchi so‘zlari turli xil ma’nolarda qo‘llanishi mumkin, bir xil tushuncha boshqacha baholovchi ma’noga ega bo‘lishi mumkin. Masalan, o‘zbek tilida qo‘y “yuvoshlik” etaloni bo‘lsa, rus tilida qo‘y “qo‘rqoqlik” etaloni sifatida turg‘unlashgan. Yoki oy o‘zbek tilida go‘zallik etaloni bo‘lsa, “rus lingvomadaniyatida oy obrazi ko‘proq g‘amgin, ma’yus, sovuq manzara bilan bog‘lanadi” [1,174]. Madaniy kodlar tizimi – bu ochiq tizim; jamiyatda o‘zini tutish me’yorlari vaqt o‘tishi bilan o‘zgaradi, madaniy kod ham o‘z-o‘zidan o‘zgarib borishi mumkin, ya’ni bir tushuncha bir necha nomlarga ramzlanishi (kodlanishi) mumkin, jumladan, tilimizda *boychechak*, *bodom* biomorf lingvomadaniy kodlari, *qaldirg‘och* lingvomadaniy zoomorf kodi bahor darakchisi sifatida kodlangan. Bu hodisani ming yillik boshida odamning oila va oilaviy qadriyatlarga bo‘lgan munosabatida yuz bergan o‘zgarishlar bilan tasdiqlash mumkin. B.A.Maslova ta’kidlaganidek, “Madaniy kodni ishlab chiqish har doim qadriyatlarni qayta baholash jarayonidan o‘tadi. Madaniy kodlar dunyo haqidagi arxetipik va mifologik g‘oyalar bilan bog‘liq dunyo haqidagi qadimiy arxaik bilimlarga asoslangan” [2,3]. Madaniy kodlar – u yoki bu madaniyatga xos bo‘lgan ijtimoiy amaliyot usullari to‘plami, muayyan xalqning qadriyatlari va qoidalari majmuyi, dunyoni idrok etishda ishlab chiqilgan me’yoriy va baholash mezonlari tizimi. Umuman olganda, har bir obrazli turg‘un bog‘lanish ma’lum bir lingvomadaniy kodga asoslanadi. O‘zbek tili frazeologiyasini shu nuqtayi nazardan o‘rganib, uni lingvomadaniy kodlar asosida tasniflash orqali o‘zbek tafakkurining modellarini yaratish, millatning lisoniy ongiga xos bo‘lgan mexanizmlarni yoritish mumkin. Lingvomadaniy kodlar xalq maqollarida ham uchraydi. Bu, ayniqsa, majoziy va qiyosli maqollarga xosdir. Maqollarda qo‘llanilgan lingvomadaniy kodlar xalqning o‘z qadriyatlariga munosabatini yaqqol aks ettiradi. Buni *Sabr tagi – oltin*; *Kekkayish terakka yarashar*, *Ona yurtning – oltin beshik* kabi ko‘plab maqollarda ko‘rish mumkin.

Lingvomadaniy kodlarning bir turi – vaqt lingvomadaniy kodi “Muayyan madaniy axborotning verbal usulda kodlashtirilishida milliy-madaniy jihatdan vaqtga oid tushunchalarni anglatuvchi so‘z (yoki so‘zlar, so‘z birikmasi) tayanch komponent bo‘lgan lisoniy (nutqiy) birlik; lingvomadaniy kod turlaridan biri. Masalan: *kun sanamoq*, *yetti xuftonda*, *umr oqshomi* kabi [3, 85]. Vaqt lingvomadaniy kodi temporal lingvomadaniy kod deb ham yuritiladi [3, 80]. Mazkur kod turining

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

mohiyati shundan iboratki, unda boshqa tushunchalar vositasida vaqt tushunchasi haqida ma’lumot beriladi.

Vaqt lingvomadaniy kodi barqaror birliklarda qanday tayanch vazifa bajarsa uni ifodalab keladi. Uning barqaror birliklarda ifodalanishi o‘quvchiga kuchli ta’sir etadi va u vositasida mazmun chuqurroq anglashiladi. *O‘tmish va kelajak, daqiqa, lahza, on, kun-u tun, bugun va erta* so‘zlari vaqt so‘zi atrofida birlashadi.

Dono xalqimiz vaqtni o‘tkinchi hodisa deb bilib, undan oqilona foydalanish lozimligini ta’kidlaydi. O‘zbek tili sohiblari ongidan vaqtga doir bir qator stereotiplar o‘rin olgan. Jumladan, o‘zbeklar uchun *Vaqt – oqar suv*, u odamning ko‘z o‘ngida tezlik bilan “oqib o‘tadi”. Vaqtdan iborat umrning o‘z “fasllari” bor – *umr bahori, umr kuzi*. Shuningdek, uning ertasi va oqshomi ham bor – *umr oqshomi*. Vaqt – eng qimmatli narsalardan biri, turli jarayonlar bu qimmatbaho narsani “o‘g‘irlashi” mumkin: *Qimmatli vaqtlarini ayamadan ishimni o‘qib chiqqanlari uchun hurmatli opponentinga o‘z tashakkurimni bildiraman* (Dissertantlar nutqidan); *Bu ortiqcha ishlar vaqtimni o‘g‘irladi* (So‘zlashuvdan). O‘zbeklar uchun vaqt – eng g‘animat, qadri narsalardan biridir: *Vaqting ketdi – naqding ketdi. Vaqtni boy bermaslik* insonning asosiy maqsadlaridan biri bo‘lmog‘i lozim. Biz kuzatgan barqaror birliklarda mana shu tasavvurlar turli lingvomadaniy kodlar vositasida o‘z aksini topgan. Jumladan, “Vaqt g‘animat, O‘tsa – nadomat” maqolida ham vaqtning qimmatli va o‘tkinchi ekanligi, shuningdek, o‘z vaqtida qilinmagan ish uchun afsus chekilishi mumkinligi haqida so‘z borgan. Maqoldagi g‘animat, nadomat so‘zlarining qofiyadoshligi maqolning yanada ta’sirchanligini oshirgan.

Kishi umrining hamma soatlarini, hattoki daqiqalarini foydali narsalarga bag‘ishlashi lozim, shundagina baxtiyor yashashga erishadi. *O‘tgan kun topilmas, Kelar kun sotilmas* maqolini ham ushbu fikrlarning dalili sifatida ko‘rishimiz mumkin.

Vaqting o‘tgandan so‘ng, qilichingni toshga chop maqoli o‘z vaqtida qilinmagan har qanday ishning oxiri baxtsizlik va omadsizlik bilan tugashi, shuningdek, qilichdek o‘tkir va keskin asbob bilan ham maqsadga erisha olmaslik ta’kidlangan.

Bahorgi beg‘amlilik – kuzgi pushaymonlik maqolida esa o‘z vaqtida qilinmagan ish keyin o‘ziga dushman bo‘lib kelishi, g‘aflatda qolib vaqtdan unumli foydalanmagan inson pushaymon bo‘lishi mumkinligi ta’kidlangan. *Bahorgi, kuzgi* yasama so‘zlarining asosi *bahor, kuz* payt otlaridan iborat bo‘lib, ular vaqtni anglatadi. *Bahor* vaqt lingvomadaniy kodi yangilanish, yasharish faslidagi harakatni – yerga urug‘ qadashni bildirsa, *kuz* vaqt lingvomadaniy kodi ekilgan urug‘ning hosili

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

ma’nosini ifodalaydi. Bu lingvomadaniy kodlar vositasida bahorda erta harakat qilinmasa, kuzda yaxshi hosilga erishilmasligi, undan bebahra qolishlik uqtirilgan.

Kayfiyati buzuq ma’nosiga teng *ta’bi xufton* iborasida *xufton* vaqt lingvomadaniy kodi ko’ngil g’ashligi ma’nosini ifodalaydi. O‘zbek tilida *yetti* (*to’qqiz*) *xufton* iborasi kunning zimiston vaqtini ifodalaydi. *Umr shomi* iborasida esa *shom* vaqt lingvomadaniy kodi shu ma’nolarni bildirib, umrning oxirgi, tugash pallasi *shom* paytiga o‘xshatilgan. Ushbu *shom* vaqt lingvomadaniy kodi xalqimizning inson umrini to‘rt fasl: bahor, yoz, kuz, qishga qiyoslashiga o‘xshab ketadi. Ya’ni bolalik bahorga, yigitlik (o‘rta yoshlik davri) yozga, keksalik kuzga, qarilik qishga qiyoslanganidek, inson umrining so‘nggi pallalari *shom* paytiga o‘xshatilgan.

Kuni bitmoq iborasida *kun* vaqt lingvomadaniy kodi umr ma’nosini anglatadi.

Butamasang – meva oz, *Butasang* – yeysan *qish-u yoz* maqolida *qish-yoz* vaqt lingvomadaniy kodi *hamisha*, *doimo* ma’nolarini o‘zida aks ettiradi.

Umr bahori, *hayot bahori*, *sevgi bahori* birliklarida paytni pildiruvchi *bahor* vaqt lingvomadaniy kodi umrning, hayotning yashnagan, kamolga yetgan payti, shunday chog‘lar ramzidir. *Yaxshi xotin* – *hamisha bahor* maqolida esa *bahor* vaqt lingvomadaniy kodi baraka timsolidir. *Bahor* vaqt lingvomadaniy kodi vositasida fayzlilik, go‘zallik kabi assotsiatsiyalar yuzaga keladi.

Erta chiqsang – *oldingdan kun chiqadi*, *Kech chiqsang* – *oldingdan tun chiqadi* maqolida ham *kun* vaqt lingvomadaniy kodi omad va shodlik ramzini anglatadi. Ushbu maqolning *Kech chiqsang* – *oldingdan tun chiqadi* gapida *tun* vaqt lingvomadaniy kodi qorong‘ulik; falokat, ofatni ifodalaydi. Tahlillardan ko‘rinadiki, o‘zbek tilida vaqt lingvomadaniy kodlari qatnashgan barqaror birliklarda vaqtning eng muhim qadriyatlardan biri ekanligi, uni qadrlash lozimligi o‘z aksini topgan. Shuningdek, obrazli tafakkur vositasida inson umrining yoshlik va keksalik davri o‘ziga xos tarzda ta’riflangan.

Vaqt lingvomadaniy kodi barqaror birliklarda qanday tayanch vazifa bajarsa uni ifodalab keladi. Uning barqaror birliklarda ifodalanishi o‘quvchiga kuchli ta’sir etadi va u vositasida mazmun chuqurroq anglashiladi. *O‘tmish* va *kelajak*, *daqiqqa*, *lahza*, *on*, *kun-u tun*, *bugun* va *erta* so‘zlari vaqt so‘zi atrofida birlashadi. *Umr shomi* iborasida *shom* vaqt lingvomadaniy kodi umrning oxirgi, tugash pallasini ifodalagan. *Umr bahori*, *hayot bahori*, *sevgi bahori* birliklarida paytni pildiruvchi *bahor* vaqt lingvomadaniy kodi umrning, hayotning yashnagan, kamolga yetgan payti, shunday chog‘lar ramzidir. *Yaxshi xotin* – *hamisha bahor* maqolida esa *bahor* vaqt lingvomadaniy kodi baraka timsolidir. *Bahor* vaqt lingvomadaniy kodi vositasida yaxshi ayol bahor fasli kabi fayz-baraka olib kelishi aytilgan. Inson hayotidagi

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

sogʻlik, aql, omad kabi sotib olib boʻlmaydigan neʼmatlar qatorida vaqt ham eng qimmatbaho hisoblanadi. Oʻzbek tili barqaror birliklardagi vaqt lingvomadaniy kodlar vositasida kishi umrining har onidan unumli va oqilona foydalanishi lozimligi uqtirilgan.

Har qanday millatning lingvomadaniyatini toʻliq idrok etish uchun uning lingvomadaniy kodlarining, jumladan, somatik lingvomadaniy kodlar, narsa-buyum lingvomadaniy kodlar, makon lingvomadaniy kodlar, vaqt lingvomadaniy kodlarning ahamiyati kattadir. Vaqt lingvomadaniy kodlari ham kelajak avlodga oʻzbek millatining milliy-madaniy bilimlarni yetkazishda vositadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Маҳмудов Н. Тил тилсими тадқиқи. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2017. – Б.174.
2. Маслова В. А., Пименова М. Б. Коды лингвокультуры. – М.: Флинта, 2018. – С.3.
3. Xudoyberganova D. Zamonaviy tilshunoslik terminlarining izohli lugʻati. – Toshkent: “Bookmany print”, 2024. – B. 85.